

O'ZBEKISTONDA PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Inoyatova Maksuda Palvonnazirovna

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasining hozirgi holati, uning asosiy muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Pensiya tizimi aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq uning samaradorligi va barqarorligi turli omillarga bog'liq. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, demografik o'zgarishlar va mehnat bozori dinamikasi pensiya tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tezisda pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligi, norasmiy bandlikning tizimga ta'siri, pensiya yoshining oshishi va texnologik modernizatsiya kabi muhim jihatlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, jamg'arma mablag'larini samarali boshqarish, raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, xususiy pensiya jamg'armalarini rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali tizimni takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pensiya jamg'armasi, pensiya tizimi, ijtimoiy ta'minot, pensiya islohotlari, jamg'arma tizimi, yoshga doir pensiya, pensiya to'lovlari.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy himoyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda pensiya tizimi muhim o'rin tutadi. Pensiya tizimi nafaqat insonlarning qariyalik davridagi daromadlarini kafolatlashga xizmat qiladi, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham yordam beradi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi hukumati pensiya tizimini modernizatsiya qilish va aholining ushbu tizimdan kengroq foydalanishini ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda.





Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, pensiya ta'minoti masalasi har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Turli pensiya tizimlarining shakllanishi va taraqqiyotining jahon tajribasi ko'rsatishicha, pensiya ta'minoti u yoki bu darajada majburiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga asoslanadi. Bunday yondashuv majburiy pensiya sug'urtasining turli aholi qatlami manfaatlariga mos kelishi bilan izohlanadi. "Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tavsiyalarida"¹ pensiya tizimlari uch darajali pensiya tizimlariga tasniflangan bo'lib, ulardan ikkitasi majburiy pensiya sug'urtasidan, qolgani esa keksalik davrida ko'proq moddiy himoyadan manfaatdor sug'urtalanuvchilar uchun ixtiyoriy jamg'armalarni individual hisobga olish tizimidan iborat. Albatta, ushbu tavsiyalar asosida pensiya tizimi darajalari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat, soliq va moliya tizimi, mehnatga haq to'lash tizimi va mehnat bozori holatiga muvofiq ravishda tashkil etiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimida islohotlarning amalga oshirilishi, asosan, demografik omillar bilan bog'liq bo'ldi. Xalqaro valyuta fondining prognozlariga ko'ra, 2050 yilga borib, sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda pensiya yoshidagi aholi ulushining o'sib borishi kuzatiladi, ya'ni pensionerlar ulushi o'rtacha 2 barobarga ortadi. Yaponiya, Italiya va Germaniyada 2050 yilga borib, pensionerlar ulushi bir muncha yuqori bo'lishi kuzatilmoqda.


O'zbekistonda mustaqillik yillarida o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshib borishi, pensionerlar sonining ko'payib borishi, aholining pensiya ta'minoti tizimidagi ishtirokining nisbatan past darajada ekanligi, pensiya miqdori va xodimning mehnat davri davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlikning kuchsizligi, pensiya tayinlash mexanizmi va talablarining eskirganligi hamda pensiya tizimi islohotlarining demografik o'zgarishlardan ortda qolayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu, o'z navbatida, davlat pensiya tizimini isloh qilish va fuqarolar

¹ Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. Darslik. – Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2018. – B. 27.



pensiya ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, mazkur mavzuning dolzarbligi xususida Oliy Majlisga Murojaatnomada "...pensiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha ham ko'p ishlar qilishimiz lozim"ligi, "...pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur"²ligi alohida ta'kidlab o'tildi. Mazkur holatlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining pensiya ta'minoti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, zamon talablariga moslashtirishni, xalqaro mezonlarga asosan takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim davlat tomonidan belgilangan huquqiy va tashkiliy asoslarga tayangan holda faoliyat yuritadi hamda fuqarolarning qariyalar davridagi moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy jihatdan ikki shakli mavjud (1-rasm):



1-rasm. Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy shakllari³

1. Fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta'minoti. Ushbu tizimning mohiyati shundaki, ijtimoiy sug'urta asosidagi pensiya tizimi «avlodlar birdamligi» prinsipiga asoslangan «taqsimlanuvchi» elementlardan tarkib topgan bo'lib, bunda ish beruvchilar va ishlovchilar Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lov va badallarni to'lab boradi, shakllangan mablag'lar hisobidan pensionerlarga pensiyalar to'lab boriladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-22-12-2017>).

³ Mamatov B.S. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – B. 13.



“Birdamlik pensiya tizimida joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zaruriy badal turlarini yig‘ish amalga oshiriladi”.⁴

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti. Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti tizimiga qo‘shimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosda pensionerlarga amaldagi pensiya to‘lovlariga qo‘shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog‘ida fuqaroning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida 2005-yil 1-yanvardan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joriy qilindi. Ushbu tizimda fuqarolarning ajratmalari ular pensiyaga chiqqunlariga qadar jamg‘arib boriladi va pensiyaga chiqqanidan keyin to‘lab beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning jamg‘armalari ixtiyoriy va majburiy pensiya badallaridan shakllanadi.

Bunda fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning 0,1 foizi miqdorida amalga oshiriladi. Demak, O‘zbekistonda pensiya ta‘minotining har ikkala tizimi pensionerlarning turmush farovonligini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan⁵.

O‘zbekistonda pensiya badallari darajasi (12-25%) boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Biroq to‘lovlarning yalpi koeffitsiyenti (55%) o‘rtacha. Ushbu ko‘rsatkich ishchining o‘rtacha ish haqiga nisbatan olingan o‘rtacha pensiyani ko‘rsatadi. Bu nomuvofiqlik fuqaro pensiya badallaridan ko‘p mablag‘ olmayotgani va pensiyalar juda past ekanligini anglatadi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda norasmiy bandlik yuqori bo‘lgani sababli pensiya ta‘minoti tizimining qamrovi past bo‘lib – 38%ni tashkil etadi. Pensiya

⁴ Vaxabov A.V., Majidov N.M Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: «Universitet», 2017. – B. 10.

⁵ Mamatov B.S. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimi: joriy holati va takomillashtirish yo‘llari // Bozor, pul va kredit. 2018. №3. (250). 50 b.



mexanizmlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan rasmiy moliyaviy xizmatlar ommabopligi ham past.

O'zbekiston pensiya tizimi majburiy badallar bo'yicha belgilangan to'lov tizimidan iborat bo'lib, borgan sari davlat byudjetidan ko'proq moliyalashtirilmoqda. So'nggi 10 yilda Pensiya jamg'armasi daromadlari 3,4 baravarga oshgan bo'lsa, xarajatlari 5 baravarga oshgan. 2020-yildan pensiya to'lovlarini moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan doimiy ravishda transfert ajratilmoqda. 2022-yilda transfert miqdori 11 trln so'm (jami xarajatning 24,7%) tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 15 trl so'm (29%) ko'zda tutilgan. 2030-yilda transfert miqdori 38 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Xalq bankidagi amaldagi majburiy pensiya jamg'arma hisobvaraqlari tizimi ixtiyoriy, moslashuvchan va boshqa banklar uchun ochiq shaklga o'tkazilishini ta'minlash.
- Yirik ish beruvchilarga kasbiy pensiya ta'minoti tizimini joriy etishga ruxsat berish, ularni moliya institutlari bilan hamkorlik uchun bog'lash.
- O'zini o'zi band qilganlar tomonidan davlat pensiya jamg'armasiga kiritiladigan badallar miqdorini bir martalik qat'iy belgilangan miqdor o'rniga daromadlariga bog'liq qilib belgilash. Ularga oz miqdorda badal kiritishga ruxsat berish.
- Har bir pensiya uchun ma'muriy va operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun davlat pensiya jamg'armasi boshqaruvini takomillashtirish. Shaffoflikni oshirish, pensiyaning aniq mezonlarini belgilash va tizimni yanada avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.
- Rasmiy bandlik darajasini shu jumladan xotin-qizlar o'rtasida oshirish, bu pensiya ta'minoti tizimiga badallar bazasini va aholini qamrovi darajasini oshirish imkonini beradi.



Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda pensiya jamg'armasi faoliyatining rivojlanish istiqbollari mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosatidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pensiya tizimini yanada takomillashtirish uchun aholining jamg'arma jarayonida faol ishtirokini rag'batlantirish, elektron boshqaruv tizimlarini keng joriy etish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jamg'arma mablag'larining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali tizim barqarorligi ta'minlanishi zarur. Kelgusida davlat va nodavlat pensiya jamg'armalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali pensiya ta'minoti yanada mustahkamlanadi. Bularning barchasi fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yaxshilash va ularning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. Darslik. – Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2018. – B. 27.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>).
3. Mamatov B.S. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – B. 13.
4. Vaxabov A.V., Majidov N.M Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining O'zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: «Universitet», 2017. – B. 10.
5. Mamatov B.S. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi: joriy holati va takomillashtirish yo'llari // Bozor, pul va kredit. 2018. №3. (250). 50 b.
6. Xaydarov A. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2018. -№11 (119), 54-60 b. (08.00.00; №5)